



ANDIJON VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

Har qanday mamlakatning milliy iqtisodiy majmuasida markaziy o'rinni korxonalar egallaydi, chunki aynan ular milliy daromadni yaratadi, bir vaqtning o'zida ishlab chiqaruvchi vazifasini bajaradi hamda o'zini o'zi ta'minlash va mustaqillikka asoslangan takror ishlab chiqarish jarayonini amalga oshiradi.

Ma'lumki, yaratilgan yalpi milliy mahsulot hajmi, jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, mamlakat aholisining moddiy va ma'naviy manfaatlarini qondirish darajasi mustaqil korxonalarning muvaffaqiyatlariga bog'liq.


Korxonaning foydalilik darajasi minimal ishlab chiqarish xarajatlari bilan fan va texnika yutuqlaridan foydalangan holda eng qulay sharoitlarni va shu bilan birga yuqori sifatli mahsulotlarni samarali ishlab chiqarishga imkon yaratishidir, boshqacha qilib aytganda, korxona bu – iqtisodiyotni tashkil qilishning shunday shakli bo'lib, u yerda yakka iste'molchi va ishlab chiqaruvchi uchta yirik iqtisodiy muammolarni hal qilish uchun bozor orqali o'zaro aloqada bo'ladi: nima, qanday va kim uchun ishlab chiqarish kerak? Shu bilan birga, tadbirkorlarning va tashkilotlarning birortasi ongli ravishda ushbu iqtisodiy muammolarning uchligini hal qilish bilan shug'ullanmaydi (bozor elementida har kim ularni individual darajada hal qiladi).

Ma'lumki, bozor tizimida hamma narsa o'z narxiga ega. Bozor iqtisodiyoti insonlar va korxonalarni narxlar va bozorlar tizimi orqali ongsiz ravishda muvofiqlashtirishga xizmat qiladi. Agar bozorlarning barcha xilma-xilligini oladigan bo'lsak, unda o'z-o'zidan narxlar va ishlab chiqarish muvozanatini sinov va xatolar orqali ta'minlaydigan keng tizimga ega bo'lamiz.

O'zbekistondagi korxonalar faoliyati O'zbekiston Respublikasining soliq, bojxona, valyuta, moliya, investitsiya va boshqa qonun hujjatlarini o'z ichiga olgan qonunchiligi bilan tartibga solinib, mamlakatimizdagi korxonalarning ayrim xususiyatlarini, jihatlarini va faoliyatini tartibga soladi.

Korxona va tashkilotlar to'g'risida umumiy ma'lumotlar


fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda




Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar

2022- yil yanvar-iyun holatiga ko'ra


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida

Andijon sh.	612	Qo'rg'on tepa t.	202
Baliqchi t.	337	Oltinko'l t.	174
Andijon t.	297	Marhamat t.	173
Shahrixon t.	293	Jalaquduq t.	149
Asaka t.	281	Bo'ston t.	120
Paxtaobod t.	214	Buloqboshi t.	111
Izboskan t.	213	Ulug'nor t.	65
Xo'jaobod t.	207	Xonobod sh.	48


Joriy yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni 3 496 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan bu ko'rsatkich 308 taga ko'p va 109,7 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida o'tgan yilga nisbatan yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar Baliqchi (112 ta), Shahrixon (90 ta), Izboskan (68 ta), Xo'jaobod (57 ta), Paxtaobod (54 ta), Qo'rg'on tepa (53 ta) va Marhamat (38 ta) tumanlarida sezilarli o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

3 582
137,3 %

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

9 616
105,8 %

Sanoat

3 291
100,1 %

Qurilish

12 688
111,2 %

Savdo

1 421
102,9 %

Tashish va saqlash

1 965
102,0 %

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

587
98,7 %

Axborot va aloqa

1 085
113,7 %

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

8 897
105,4 %

Boshqa turlar

Hududlar kesimida


Andijon sh.	12 749
Asaka t.	4 060
Shahrixon t.	3 020
Andijon t.	2 999
Baliqchi t.	2 352
Izboskan t.	2 141
Qo'rg'on tepa t.	2 134
Oltinko'l t.	2 108
Marhamat t.	1 917
Xo'jaobod t.	1 844
Paxtaobod t.	1 821
Jalaquduq t.	1 752
Buloqboshi t.	1 323
Bo'ston t.	1 172
Xonobod sh.	888
Ulug'nor t.	852

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni o'tgan yilning mos davriga (39 700 ta) nisbatan 3 432 taga oshib, o'sish sur'ati 108,6 foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonining o'tgan yilga nisbatan sezilarli o'sishi Andijon (366 ta), Baliqchi (346 ta), Izboskan (340 ta), Asaka (339 ta) va Shahrixon (329 ta) tumanlarida qayd etildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan eng yuqori ko'rsatkich savdo sohasida – 1 274 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 974 ta, sanoatda – 523 taga to'g'ri kelib, qurilish sohasida esa boshqa sohalarga nisbatan kamroq – 3 tani tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati

2022- yilning
2020- yilga
nisbati2022- yilning
2021- yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	572
Baliqchi t.	334
Andijon t.	287
Shahrixon t.	280
Asaka t.	264
Paxtaobod t.	210
Izboskan t.	208
Xo'jaobod t.	199
Qo'rg'ontepa t.	198
Marhamat t.	169
Oltinko'l t.	166
Jalaquduq t.	146
Bo'ston t.	114
Buloqboshi t.	104
Ulug'nor t.	61
Xonobod sh.	45

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Tahlillar shuni ko'rsatdiki, so'nggi uch yil ichida viloyatimizdagi tadbirkorlik subyektlarining taxminan 30 foizi yangi tashkil etilgan.


Hududlar kesimida yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari sonining o'tgan yilga nisbatan Baliqchi (117 taga), Shahrixon (83 taga), Izboskan (68 taga), Paxtaobod (57 taga), Xo'jaobod (54 taga) va Qo'rg'ontepa (51 taga) tumanlarida sezilarli o'sishi kuzatildi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilga nisbatan solishtirilganda eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (786 taga) hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida (6 taga) o'sish kuzatildi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning salmoqli qismi - 37 762 tasi yoki 87,5 foizi tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelib, o'sish sur'atlari o'tgan yilning shu davriga nisbatan 108,8 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (137,7 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (113,9 foiz), savdo (111,1 foiz), sanoat (105,7 foiz) hamda tashish va saqlash (102,8 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida esa Xo'jaobod (123,1 foiz), Baliqchi (120,8 foiz), Izboskan (120,8 foiz), Ulug'nor (119,0 foiz), Jalaquduq (118,8 foiz), Bo'ston (118,7 foiz) va Marhamat (118,1 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 585
Asaka t.	3 624
Andijon t.	2 687
Shahrixon t.	2 568
Baliqchi t.	2 052
Izboskan t.	1 857
Oltinko'l t.	1 801
Qo'rg'ontepa t.	1 790
Marhamat t.	1 648
Xo'jaobod t.	1 621
Paxtaobod t.	1 552
Jalaquduq t.	1 453
Buloqboshi t.	1 095
Bo'ston t.	960
Xonobod sh.	779
Ulug'nor t.	690


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022-yilning
2020-yilga
nisbati



2022-yilning
2021-yilga
nisbati

Hududlar kesimida

Andijon sh.	571	Qo'rg'ontepa t.	198
Baliqchi t.	333	Marhamat t.	169
Andijon t.	286	Oltinko'l t.	166
Shahrixon t.	280	Jalaquduq t.	146
Asaka t.	264	Bo'ston t.	114
Paxtaobod t.	210	Buloqboshi t.	104
Izboskan t.	208	Ulug'nor t.	61
Xo'jaobod t.	199	Xonobod sh.	45


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	Sanoat	Qurilish
1 026	591	140
Savdo	Tashish va saqlash	Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
1 053	86	99
Axborot va aloqa	Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	Boshqa turlar
62	80	217


Ma'lumki, viloyatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik jadal rivojlanmoqda. Shuningdek, mahalliy tadbirkorlar va investorlar uchun bir qator qulay huquqiy va iqtisodiy sharoitlar yaratilib kelinmoqda.

Shunday qilib, 2022- yil yanvar-iyun oyida yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 300 taga oshgan. Ushbu ko'rsatkich iqtisodiy faoliyat turlari kesimida tahlil qilinganda qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 786 taga hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda – 6 taga oshganligini ko'rishimiz mumkin.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Hududlar kesimida

Andijon sh.	11 516	Marhamat t.	1 642
Asaka t.	3 614	Xo'jaobod t.	1 614
Andijon t.	2 676	Paxtaobod t.	1 549
Shahrixon t.	2 564	Jalaquduq t.	1 447
Baliqchi t.	2 048	Buloqboshi t.	1 094
Izboskan t.	1 854	Bo'ston t.	958
Oltinko'l t.	1 794	Xonobod sh.	775
Qo'rg'ontepa t.	1 784	Ulug'nor t.	686


2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan kichik biznes subyektlari soni 2021- yilning mos davriga nisbatan 3 036 taga ko'paygan va o'sish sur'ati 108,8 foizni tashkil etdi.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida (137,5 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (113,8 foiz), savdoda (111,2 foiz) hamda sanoat (105,7 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lsa, hududlar kesimida Xo'jaobod (123,0 foiz), Izboskan (120,9 foiz), Baliqchi (120,8 foiz), Bo'ston (118,9 foiz), Ulug'nor (118,9 foiz) va Jalaquduq (118,6 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.


Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Dehqonchilik,
va chorvachilik,
ovchilik
va bu sohalarda
xizmat ko'rsatish

3 383

19

O'rmonchilik
va yog'och
tayyorlash

Baliq ovlash
va akvakultura

180


Asaka t.	462
Andijon sh.	311
Shahrixon t.	292
Qo'rg'ontepa t.	280
Andijon t.	277
Baliqchi t.	265
Izboskan t.	262
Paxtaobod t.	250
Marhamat t.	201
Jalaquduq t.	198
Oltinko'l t.	174
Bo'ston t.	161
Ulug'nor t.	152
Xo'jaobod t.	142
Buloqboshi t.	107
Xonobod sh.	48

O'zbekiston Respublikasida mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirishning chuqur o'ylangan strategiyasi izchil amalga oshirilmoqda.


Davlatimiz iqtisodiy va ijtimoiy siyosatining muhim tarkibiy qismi sifatida meva-sabzavot yetishtirishga bunday yondashuv aholi ehtiyojlarini to'liq ta'minlash, ularning salomatligini saqlash, shuningdek, bandlik shart-sharoitlarini yaratishda asosiy yo'nalishlardan biriga aylandi.

Shunday qilib, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sonining ko'pligi bo'yicha, Asaka tumani viloyatda yetakchilik qilib kelmoqda.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	2 985
Asaka t.	992
Andijon t.	846
Shahrixon t.	719
Xo'jaobod t.	545
Baliqchi t.	473
Oltinko'l t.	453
Qo'rg'ontepa t.	387
Izboskan t.	366
Jalaquduq t.	356
Marhamat t.	331
Buloqboshi t.	304
Paxtaobod t.	303
Bo'ston t.	216
Xonobod sh.	204
Ulug'nor t.	136

9 276

106,1 %

Ishlab chiqarish sanoati

34

87,2 %

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

145

101,4 %

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

161


94,7 %

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish


Qayd etish kerakki, sanoat tarmog'i iqtisodiy tarmoqlar ichida eng yuqori salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan hisoblanadi. Shunday qilib, so'nggi uch yil ichida milliy iqtisodiyotda faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari sonining o'sish sur'ati 150,9 foizni tashkil etdi.

Sanoat korxonalari soni jami korxona va tashkilotlarning 22,3 foiz ulushini tashkil etdi. Shundan – 96,5 foizini ishlab chiqarish sanoati (o'tgan yilga nisbatan o'sish 106,1 %), 1,5 foizini tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash (101,4 %), 0,3 foizini elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash (87,2 % ni) va 1,7 foizini suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish (94,7 % ni) tashkil etgan.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida



Bino va inshootlar qurish

2 009
98,2 %

Fuqarolik obyektlarini qurish

300
114,5 %

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

982
100,2 %

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda o'sish sur'ati 11,2 foizga oshgan.


Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qarganda:

binolar va inshootlar qurish yo'nalishi 61,1 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 98,2 foizni tashkil etadi;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 9,1 foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 14,5 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 29,8 foiz ulushni va 100,2 foiz o'sish sur'atini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	3 473
Asaka t.	1 136
Shahrixon t.	851
Baliqchi t.	816
Andijon t.	804
Oltinko'l t.	734
Izboskan t.	727
Qo'rg'ontepa t.	676
Paxtaobod t.	641
Marhamat t.	581
Xo'jaobod t.	574
Jalaquduq t.	573
Buloqboshi t.	357
Bo'ston t.	303
Xonobod sh.	225
Ulug'nor t.	217

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
chakana savdo

8 166
109,6 %

Avtomobil va
mototsikllar
savdosidan tashqari
ulgurji savdo

3 587
113,7 %


Avtomobil va
mototsikllarning ulgurji
va chakana savdosi va
ularni ta'mirlash

935
115,7 %


Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar sonini ushbu sohaning quyidagi yo'nalishlari kesimida qaralganda:

- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo yo'nalishida 64,3 foiz ulushni tashkil etgan bo'lib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 9,6 foizga o'sgan;
- avtomobil va mototsikllar savdosidan tashqari ulgurji savdo yo'nalishida 28,3 foiz ulushni tashkil etib, 13,7 foizga oshgan;
- avtomobil va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi va ularni ta'mirlash yo'nalishida 7,4 foiz ulushni tashkil etib, 15,7 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	774
Asaka t.	173
Andijon t.	140
Xonobod sh.	105
Shahrixon t.	98
Oltinko'l t.	81
Qo'rg'ontepa t.	80
Ulug'nor t.	73
Izboskan t.	69
Paxtaobod t.	63
Jalaquduq t.	61
Buloqboshi t.	56
Baliqchi t.	55
Xo'jaobod t.	55
Marhamat t.	48
Bo'ston t.	34

Yashash bo'yicha xizmatlar

Oziq- ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar




2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2020- yilning mos davri bilan solishtirilganda 14,4 foizga oshgan bo'lib, viloyatdagi jami faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 4,6 foiz ulushini tashkil etdi.


Mehmonxonalar, turistik oromgohlar, dam olish va ko'ngilochar parklar va shaharchalar yashash bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosiy faoliyatlari hisoblanib, 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning 7,2 foiz ulushini tashkil etdi.

Restoran, oziq-ovqat mahsulotlarini yetkazish va buyurtma bo'yicha ovqat va ichimliklarni yetkazish faoliyatlari oziq-ovqat va ichimliklar yetkazish bo'yicha xizmatlar yo'nalishining asosi hisoblanib, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasining 92,8 foiz ulushini tashkil etdi.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	220
Asaka t.	45
Baliqchi t.	39
Marhamat t.	39
Shahrixon t.	36
Xo'jaobod t.	32
Buloqboshi t.	32
Andijon t.	30
Qo'rg'ontepa t.	23
Oltinko'l t.	19
Paxtaobod t.	17
Jalaquduq t.	16
Izboskan t.	13
Xonobod sh.	10
Ulug'nor t.	10
Bo'ston t.	6



Nashriyotchilik faoliyati



Kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish



Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirish



Aloqa



Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar




Axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra nashriyotchilik faoliyati, kino-videofilmlar, televizion dasturlar, fonogrammalar va musiqali yozuvlarni ishlab chiqish yo'nalishlarida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni axborot va aloqa sohasining 13,5 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 2,6 foizga oshgan.


Dasturlar yaratish bo'yicha faoliyat va teleko'rsatuv va radioeshittirishlar hamda aloqa yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasining 46,8 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 100,0 foizni tashkil etdi.

Kompyuter dasturlashtirish, maslahat berish va boshqa yordamchi xizmatlar hamda axborot xizmati ko'rsatish sohasidagi faoliyat yo'nalishlaridagi korxonalar soni axborot va aloqa sohasidagi korxona va tashkilotlarning 39,7 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 95,9 foizni tashkil etgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	385
Asaka t.	91
Shahrixon t.	88
Andijon t.	69
Izboskan t.	60
Baliqchi t.	56
Marhamat t.	49
Oltinko'l t.	47
Qo'rg'ontepa t.	46
Xo'jaobod t.	44
Paxtaobod t.	42
Buloqboshi t.	40
Jalaquduq t.	36
Xonobod sh.	17
Bo'ston t.	9
Ulug'nor t.	6

Sog'liqni saqlash sohasidagi faoliyat

1 055
113,3 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash

18
112,5 %

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

12
171,4 %

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning 97,2 foizini sog'liqni saqlash sohasi yo'nalishidagi korxonalar tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 13,3 foizga o'sgan.


Yashash uchun joy bilan ta'minlangan holda parvarishlash yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasining 1,7 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davriga nisbatan 12,5 foizga oshgan.

Yashash uchun joy bilan ta'minlanmagan holda ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yo'nalishidagi korxonalar soni ushbu sohaning 1,1 foizini tashkil etib, 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 71,4 foizga o'sgan.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	588
Asaka t.	134
Andijon t.	99
Shahrixon t.	77
Qo'rg'ontepa t.	65
Izboskan t.	54
Marhamat t.	51
Xo'jaobod t.	51
Oltinko'l t.	50
Baliqchi t.	50
Paxtaobod t.	49
Jalaquduq t.	41
Bo'ston t.	40
Buloqboshi t.	38
Ulug'nor t.	18
Xonobod sh.	16

Quruqlikdagi va quvur transporti

1 089

105,6 %

Ombor xo'jaligi va yordamchi transport faoliyati

307

94,8 %

Pochta va kuryerlik faoliyati

24

96,0 %

Havo transporti

1

100,0 %

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, tashish va saqlash xizmatlari sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar jami viloyatdagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonaning 3,3 foiz ulushini tashkil etdi.

Tashish va saqlash xizmatlari sohasining quruqlikdagi va quvur transporti yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlari soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 5,6 foizga oshgan. Havo transporti yo'nalishida 100,0 foizni, pochta va kuryerlik yo'nalishida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni 2021- yilning mos davri bilan solishtirilganda 96,0 foizni hamda ombor xo'jaligi va yordamchi transport yo'nalishida 94,8 foizni tashkil etgan.


Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha umumiy ma'lumot

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Tadbirkorlik subyektlari soni




Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi



Tashkiliy-huquqiy shakl deganda, subyekt tomonidan mulkning birlashtirilishi (shakllantirilishi) va undan foydalanish usuli hamda uning bundan kelib chiquvchi huquqiy holati va faoliyat maqsadi tushuniladi. Shuningdek, quyidagilar bilan bog'liq masalalarni hal qilishda foydalaniladi:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan registr, reyestr va kadastrlarning axborot resurslarini shakllantirish;
- tashkiliy-huquqiy shakllar doirasida statistika ma'lumotlarini ishlab chiqish;
- idoralararo axborot almashinishini ta'minlash;
- ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni va hodisalarni tahlil qilish va prognozlashtirish.


Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




Hududlar kesimida


Andijon sh.	537	Xo'jaobod t.	165
Baliqchi t.	297	Marhamat t.	162
Andijon t.	246	Oltinko'l t.	143
Shahrixon t.	235	Jalaquduq t.	113
Asaka t.	221	Buloqboshi t.	98
Izboskan t.	192	Bo'ston t.	72
Qo'rg'ontepa t.	177	Ulug'nor t.	58
Paxtaobod t.	169	Xonobod sh.	42

Bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta'sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta'sis hujjatlari bilan belgilangan miqdorda ulushlarga bo'lingan xo'jalik jamiyati mas'uliyati cheklangan jamiyat deb hisoblanadi. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatlari bo'yicha javobgar bo'lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog'liq zararlar uchun o'zlari qo'shgan hissalar qiymati doirasida javobgar bo'ladilar. Mas'uliyati cheklangan jamiyatning o'z hissasini to'la qo'shmagan ishtirokchilari, jamiyat majburiyatlari bo'yicha har bir ishtirokchi hissasining to'lanmagan qismi qiymati doirasida solidar javobgar bo'ladilar.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

2 720
155,2 %



Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi

7 311
110,1 %



Sanoat

2 900
103,5 %



Qurilish

10 057
115,4 %



Savdo

1 311
104,1 %



Tashish va saqlash

1 347
107,2 %



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

466
107,6 %



Axborot va aloqa

812
116,8 %



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish

2 867
108,4 %



Boshqa turlar

Hududlar kesimida

Andijon sh. 9 394

Asaka t. 2 310

Andijon t. 2 115

Shahrixon t. 2 034

Baliqchi t. 1 605

Izboskan t. 1 603

Oltinko'l t. 1 451

Marhamat t. 1 397

Xo'jaobod t. 1 393

Paxtaobod t. 1 323

Qo'rg'ontepa t. 1 314

Jalaquduq t. 1 197

Buloqboshi t. 878

Xonobod sh. 634

Ulug'nor t. 588

Bo'ston t. 555


2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat yuritayotgan 37 762 ta tijorat korxonalari va tashkilotlaridan mas'uliyati cheklangan jamiyatlar 29 791 tani tashkil etdi. Shunga asosan, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar viloyatimizdagi eng keng tarqalgan tadbirkorlik faoliyatining shakli ekanligi haqida xulosa qilishimiz mumkin.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda, o'sish qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (155,2 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (116,8 foiz), savdo (115,4 foiz), sanoat (110,1 foiz), axborot va aloqa (107,6 foiz), yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (107,2 foiz) sohalarida kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Baliqchi (132,5 foiz), Marhamat (126,2 foiz), Paxtaobod (124,6 foiz), Izboskan (123,2 foiz), Bo'ston (123,1 foiz) va Ulug'nor (122,5 foiz) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida



Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati




Hududlar kesimida

Andijon sh.	1 205	Oltinko'l t.	178
Asaka t.	732	Jalaquduq t.	164
Baliqchi t.	361	Paxtaobod t.	147
Shahrixon t.	264	Izboskan t.	133
Qo'rg'ontepa t.	253	Buloqboshi t.	109
Andijon t.	235	Bo'ston t.	93
Marhamat t.	209	Xonobod sh.	77
Xo'jaobod t.	199	Ulug'nor t.	57


2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra faoliyat ko'rsatayotgan xususiy korxonalar soni o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslanganda 14,6 foizga kamaydi.

Xususiy tadbirkorlik subyektlari o'sish sur'atlarining o'tgan yilga nisbatan pasayishiga axborot va aloqa (67,2 foiz), qurilish (75,5 foiz), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi (78,8 foiz), tashish va saqlash sohalari (79,5 foiz), shuningdek, hududlar kesimida esa – Paxtaobod (71,0 foiz), Andijon shahri (72,6 foiz), Shahrixon (82,8 foiz) va Qo'rg'ontepa (82,4 foiz) tumanlari ta'sir ko'rsatmoqda.

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



Hududlar kesimida

Andijon sh.	787	Buloqboshi t.	90
Asaka t.	542	Baliqchi t.	61
Andijon t.	310	Xonobod sh.	57
Bo'ston t.	298	Jalaquduq t.	37
Shahrixon t.	251	Paxtaobod t.	35
Qo'rg'ontepa t.	198	Ulug'nor t.	34
Oltinko'l t.	146	Marhamat t.	25
Izboskan t.	100	Xo'jaobod t.	12

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida




2022- yil 1- iyul holatiga yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tib, faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 2 983 tani yoki ro'yxatdan o'tganlarning 91,9 foizini tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar sonining o'sishi 106,5 foizni tashkil etdi.

Oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaranganda qurilish (131,6 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (121,1 foiz), savdo (112,1 foiz), tashish va saqlash (111,5 foiz) hamda sanoat (105,8 foiz) sohalarida eng yuqori o'sish kuzatilgan bo'lib, hududlar kesimida esa Shahrixon (123,0 %), Baliqchi (122,0 %), Andijon (120,6 %), Bo'ston (119,7 %), Qo'rg'ontepa (112,5 %) va Paxtaobod (109,4 %) tumanlarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish kuzatilgan.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumot

2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra, birlikda

Yillar kesimida soni



Yillar kesimida o'sish sur'ati



2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra viloyatimizda xorijiy kapital ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni 392 tani tashkil etdi. O'tgan yilga nisbatan ularning soni 106,2 foizga, ya'ni 23 donaga ko'paygan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida eng yuqori o'sish qurilish (129,2 foiz), axborot va aloqa (125,0 foiz), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (120,0 foiz) hamda savdo (118,2 foiz) sohalariga to'g'ri kelib, hududlar kesimida esa Asaka (145,0 foiz), Qo'rg'ontepa (118,2 foiz), Jalaquduq (114,3 foiz), Baliqchi (114,3 foiz), Bo'ston (114,3 foiz) hamda Buloqboshi (113,3 foiz) tumanlariga to'g'ri keldi.

Hududlar kesimida

Andijon sh.	156
Andijon t.	30
Asaka t.	29
Shahrixon t.	28
Oltinko'l t.	21
Xonobod sh.	18
Buloqboshi t.	17
Jalaquduq t.	16
Marhamat t.	14
Xo'jaobod t.	14
Qo'rg'ontepa t.	13
Paxtaobod t.	9
Baliqchi t.	8
Bo'ston t.	8
Izboskan t.	7
Ulug'nor t.	4

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida

 26 Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	 199 Sanoat	 31 Qurilish
 65 Savdo	 4 Tashish va saqlash	 10 Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
 5 Axborot va aloqa	 6 Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	 46 Boshqa turlar

2022

2021



Rossiya



AQSH




Germaniya



Xitoy



Turkiya



Janubiy Koreya



Ozərbayjon



Turkmaniston



Tojikiston



Qozog'iston




Qirg'iz R.



boshqalar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatining asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, pragmatizm, bashoratga intilish, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shniçilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 250 tasi qo'shma korxonalar, 142 tasi esa xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keladi.



Qo'shma korxonalar

Xorijiy korxonalar

So'nggi yillarda O'zbekiston iqtisodiyot jadal o'zgartirishni boshdan kechirdi va xalqaro hamjamiyatda ochiqlik, innovatsiya va biznes sarmoyaviy to'siqlarni bartaraf etishda qat'iylilik timsollaridan biri sifatida tobora ko'proq e'tirof etilmoqda. Demak, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar sonining ko'payishi, avvalambor, mamlakatdagi siyosiy barqarorlik va investitsiya faoliyatining huquqiy asoslari takomillashtirilgani bilan bog'liq.

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan, avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxona va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestrda mavjud bo'lgan yuridik shaxslar hisoblanadi (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslar hisoblanadi.


Yangi tashkil etilgan – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslar hisoblanadi.

Yuridik shaxslarning faollik darajasi – ma'lum bir davrda faoliyat ko'rsatmayotgan yuridik shaxslarning jami ro'yxatdan o'tgan yuridik shaxslarga nisbatining foizdagi ifodasi.

Kichik korxona va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yil 24- avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 275- son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar.

Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar – norezidentlar ishtirokidagi korxonalar, xorijiy yuridik shaxslar (xorijiy firmalarning filiallari va bo'limlari), korxonaning ustav fondida chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etgan korxonalar.

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida 2022- yil 1- iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

**Andijon viloyati statistika
boshqarmasi Statistik
registrlarni yuritish bo'limi
Tel.: 74 228-29-74**

